O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'SIQLARINI KAMAYTIRISH ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

AKBARALIYEVA SITORA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASINING
MAGISTRATURA TINGLOVCHISI
E-MAIL:akbaraliyevas571@gmail.com
F-Telefon:+998948465545
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22864774

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda O'zbekistonda bojxona to'siqlarining eksport salohiyatiga ta'siri masalalari ko'rib chiqilgan. Tarif va tarif bo'lmagan to'siqlarning mohiyati tahlil qilingan, mamlakatda amalga oshirilayotgan bojxona islohotlari natijalari statistik ma'lumotlar asosida baholangan hamda bojxona rasmiylashtiruv jarayonini soddalashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'siqlari, eksport salohiyati, tashqi savdo, tarif bo'lmagan to'siqlar,"bir oyna"tizimi,elektron deklaratsiya, ta'minot zanjiri, Jahon savdo tashkiloti.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida davlatlarning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning tashqi savdo faoliyatini qanchalik samarali tashkil eta olishiga bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlarida sezilarli o'sishga erishmoqda.Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda respublika eksporti taxminan 33,8 milliard AQSH dollarigacha yetib, avvalgi yilga nisbatan qariyb to'rtdan bir qismga ya'ni 24 foizga o'sgan. Shu bilan birga, mazkur o'sishning deyarli 30 foizi oltin eksporti hisobiga to'g'ri keladi, bu esa eksport tarkibini xomashyodan uzoqlashtirish va xilma-xillashtirish zaruratini yana bir bor ko'rsatadi.

Mamlakat, shuningdek, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini yakunlash bosqichida turibdi.2025-yil yakuniga kelib bu tashkilotga a'zo davlatlarning aksariyati bilan bozorga kirish bo'yicha muzokaralar yakunlangan, bu esa bojxona-tarif tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish talabini kuchaytirmoqda. Ana shunday sharoitda bojxona rasmiylashtiruvi jarayonidagi ma'muriy va protsedura to'siqlarini kamaytirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Buning asosiy sababi aynan shu to'siqlar tadbirkorlarning yangi bozorlarga chiqishini sekinlashtiradi va eksport salohiyatidan to'liq foydalanishga xalaqit beradi.

Tezisning maqsadi shuki,O'zbekistonda mavjud bojxona to'siqlarining eksport faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish va ularni kamaytirish orqali eksport salohiyatini oshirishning amaliy yo'nalishlarini tavsiflashdan iborat.

ASOSIY QISM

1. Bojxona to'siqlarining mohiyati va turlari

Xalqaro savdo amaliyotida bojxona to'siqlari odatda ikki katta guruhga bo'linadi: tarif to'siqlari ya'ni bojxona bojlari va soliqlari,ikkinchisi tarif bo'lmagan to'siqlar aniqroq qilib aytsak litsenziyalash talablari, sertifikatlashtirish, hujjatlar soni, tekshiruv muddatlari, texnik reglamentlar. Ko'plab tadqiqotlar shuni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko'rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda aynan tarif bo'lmagan to'siqlar eksportyorlar uchun tarif to'siqlariga qaraganda ko'proq vaqt va moliyaviy xarajat yo'qotishiga sabab bo'ladi, chunki ular ko'pincha shaffof emas va turli idoralar o'rtasida takrorlanadi.

2. O'zbekistonda mavjud vaziyat va olib borilayotgan islohotlar

So'nggi yillarda O'zbekiston bojxona sohasini isloh qilish yo'nalishida bir qator amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Bunga misol qilib elektron deklaratsiya tizimining joriy etilishi, "bir oyna" tizimining ishga tushirilishi va xavflarni boshqarish tizimiga asoslangan tanlab tekshirish mexanizmini ko'rsatishimiz mumkin. Bu choralar natijasida tashqi savdo aylanmasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.2026-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasi 11,6 milliard dollarga yetib, oldingi yilning mos davriga nisbatan 7,1 foizga oshgan.

Shu bilan birga, qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash borasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Masalan, bojxona imtiyozlarining kuchga kirishi va logistika sharoitlarining yaxshilanishi natijasida Afg'onistonga eksport hajmi 2024-yildagi 700-750 million dollardan 2025-yilning 11 oyida qariyb 1,15 milliard dollargacha o'sgan, bu esa bojxona-tarif sohasidagi yengilliklarning eksport hajmiga bevosita ijobiy ta'sirini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ayni paytda mazkur yo'nalishda hamon jiddiy muammolar mavjud: xususan, chegaraosti yuk tashish muddatlari masalan Bog'dodgacha 10-12 kun, Damashqqacha 20 kunga yetishi va yuqori tashish xarajatlari eksportyorlar uchun qo'shimcha yuk bo'lib qolmoqda.

3. Bojxona to'siqlarining eksport salohiyatiga ta'siri

Bojxona rasmiylashtiruvidagi kechikishlar va qo'shimcha xarajatlar, ayniqsa tez buziladigan mahsulotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari, meva-sabzavot, un mahsulotlari eksportida jiddiy yo'qotishlarga olib keladi.Masalan 2025-yilda O'zbekiston qariyb 1,6 million tonna un eksport qilgan bo'lib, bunday hajmdagi eksportda rasmiylashtirish tezligi mahsulot sifati va raqobatbardoshligini bevosita belgilaydi. Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun murakkab bojxona protseduralari xorijiy bozorga chiqishning asosiy to'sig'iga aylanadi, chunki ular yirik kompaniyalarga nisbatan huquqiy va moliyaviy resurslarga kamroq ega.

4. To'siqlarni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari

1. Bojxona va boshqa nazorat organlari shu jumladan,sanitariya-epidemiologiya, fitosanitariya, sertifikatlash o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini to'liq raqamli asosga o'tkazish;
2. Hujjatlar sonini va rasmiylashtirish bosqichlarini soddalashtirish-bir martalik hujjat taqdim etish tamoyilini joriy etish;
3. Xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali ishonchli eksportyorlar uchun"yashil yo'lak"mexanizmini kengaytirish;
4. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni doirasida bojxona-tarif tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;
5. Qo'shni davlatlar va asosiy savdo hamkorlari bilan bojxona ma'lumotlarini o'zaro tan olish tizimini joriy etish;
6. Kichik va o'rta biznes uchun bojxona konsalting xizmatlari va ma'lumotlilikni oshirish dasturlarini rivojlantirish;
7. Chegaraosti logistika infratuzilmasini yo'llar, omborlar, transport vositalari yaxshilash orqali tashish muddati va xarajatlarini qisqartirish.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillardagi statistik ko'rsatkichlar O'zbekiston eksport salohiyatining barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etayotganini ko'rsatadi, biroq bu o'sishning katta qismi hali ham xomashyo resurslari hisobiga ta'minlanmoqda, bu esa eksportni xilma-xillashtirish va bojxona sohasidagi to'siqlarni izchil kamaytirish zaruratini kuchaytiradi. Raqamlashtirish, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali bojxona rasmiylashtiruv jarayonini soddalashtirish mamlakat eksportyorlarining raqobatbardoshligini oshiradi va ta'minot zanjirlarining umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Tashqi savdo statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar stat.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi savdoni rivojlantirish va bojxona sohasini isloh qilishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
3. Gazeta.uz, Spot.uz tahliliy nashrlarining tashqi savdo va bojxona islohotlariga oid materiallari.
4. Ta'minot zanjiri va xalqaro savdoda risklarni boshqarish bo'yicha ilmiy adabiyotlar.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.